



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23 854** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1 762** taga kamaygan yoki **6,9 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,3** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-dekabrida **6 347** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **112,2 %** tashkil etdi.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
25 616	Xorazm viloyati	23 854
4 941	Urganch sh	4 561
2 216	Xiva sh.	1 898
1 639	Bog'ot	1 660
1 691	Gurlan	1 616
2 011	Qo'shko'pir	1 981
2 956	Urganch	2 647
1 466	Hazorasp	1 427
619	Tuproqqal'a	615
1 959	Xonqa	1 781
1 921	Xiva	1 710
1 480	Shovot	1 460
1 433	Yangiariq.	1 401
1 284	Yangibozor	1 097

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **23 854** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 347** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 561** tani yoki jamiga nisbatan **19,1 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda*

Urganch sh.	30,1
Xiva sh.	19,4
Bog'ot	11,6
Gurlan	13,2
Qo'shko'pir	13,4
Urganch	14,3
Hazorasp	8,8
Tupraqqal'a	14,3
Xonqa	11,7
Xiva	13,3
Shovot	11,3
Yangiariq	14,0
Yangibozor	17,1

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **14,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,1** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **30,1** birlik, Xiva shahrida **19,4** birlik, Yangibozor tumanida **17,1** birlik, Urganch va Tuproqqal'a tumanida **14,3** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri
– 30,1 birlik




O'rta ko'rsatkich

Qo'shko'pir tumani
– 13,4 birlik



Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 8,8 birlik



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **30,1** birlik, Xiva shahrida **19,4**, Yangibozor tumanida **17,1** birlik, Urganch tumanida **14,3** birlik, Tuproqqal'a tumanida **14,3** birlik, Yangiariq tumanida **14,0** birlik, Qo'shko'pir tumanida **13,4** birlik, Xiva tumanida **13,3** birlik, Gurlan tumanida **13,2** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, birlikda

Urganch shahri

30,1

Yangibozor tumani

17,1

Tuproqqal'a tumani

14,3

Xiva shahri

19,4

Urganch tumani

14,3

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

750	Urganch sh.	841
334	Xiva sh.	378
506	Bog'ot	553
436	Gurlan	490
548	Qo'shkupir	610
585	Urganch	657
446	Hazorasp	497
148	Tupraqqal'a	166
347	Xonqa	380
367	Xiva	398
480	Shovot	591
397	Yangiariq	442
311	Yangibozor	344


2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **13,3** %, Qo'shko'pir tumani – **9,6** %, Shovot tumani – **9,3** %, Bog'ot tumani – **8,7** %, Hazorasp tumani – **7,8** %, Gurlan tumani – **7,7** %, Yangiariq tumani – **7,0** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **26 236** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **9 749** ta (yoki **37,2** %), xizmatlar sohasida – **5 883** ta (yoki **22,4** %), sanoat sohasida – **5 298** ta (yoki **20,2** %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 981** ta (yoki **15,2** %) va qurilish sohasida – **1 325** tani (yoki **5,0** %) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish




Chakana savdo



Xizmatlar




Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2022- y. ■ 2023- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,7** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,3** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,3** % ni, yo'lovchi tashishda **94,6** % ni, chakana savdoda **94,9** % ni, qurilishda **90,4** %, yuk tashishda **95,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Urganch sh.	883,5
Urganch	582,2
Xonqa	323,5
Tupraqqal'a	270,3
Bog'ot	237,3
Xiva	185,1
Xiva sh.	180,4
Gurlan	159,3
Qo'shko'pir	152,2
Yangiariq	134,9
Hazorasp	127,7
Shovot	124,9
Yangibozor	84,0

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3445,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**883,5** mlrd. so'm), Urganch (**582,2** mlrd. so'm), Xonqa (**323,5** mlrd. so'm), Tuproqqal'a (**270,3** mlrd. so'm) va Bog'ot (**237,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangibozor tumanida (**84,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 16,3 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Urganch tumani (63,8 %), Xiva sh. (57,2 %), Xiva tumani (53,4 %), Bog‘ot tumani (42,9 %), Xonqa tumani (41,8 %), Qo‘shko‘pir tumani (36,3 %), Gurlan tumani (30,8 %), Urganch shahri (26,1 %), Hazorasp tumani (24,6 %) va Yangiariq tumani (22,4 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	885,6	78,6
Xiva sh.	371,4	92,2
Bog'ot	277,2	93,3
Gurlan	296,5	88,0
Qo'shko'pir	392,0	97,2
Urganch	577,5	88,7
Hazorasp	394,7	92,4
Tuproqqal'a	170,5	84,5
Xonqa	396,0	84,5
Xiva	589,3	99,4
Shovot	287,1	100,0
Yangiariq	259,2	99,8
Yangibozor	296,3	92,8


hajmi, mlrd. so'mda ↑
 ulushi, % da ↑

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5193,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **90,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **102,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**885,6** mlrd. so'm), Xiva (**589,3** mlrd. so'm), Urganch (**577,5** mlrd. so'm), Xonqa (**396,0** mlrd. so'm), Hazorasp (**394,7** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**392,0** mlrd. so'm) hamda Xiva shahrida (**371,4** mlrd. so'm) qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **5 247,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **43,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**631,4** mlrd. so'm), Urganch (**312,5** mlrd. so'm), Yangibozor (**307,5** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**291,0** mlrd. so'm), Xonqa (**269,0** mlrd. so'm), Hazorasp (**220,3** mlrd. so'm), Gurlan (**197,7** mlrd. so'm) hamda Bog'ot (**166,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **26 766,9** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,3** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **103,6** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Urganch (**2 965,3** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**2 857,3** mlrd. so'm), Xonqa (**2 844,3** mlrd. so'm), Shovot (**2 700,9** mlrd. so'm), Gurlan (**2 668,6** mlrd. so'm) hamda Bog'ot (**2 477,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	515,4	80,9
Xiva sh.	87,8	98,6
Bog'ot	2477,9	96,3
Gurlan	2668,6	98,6
Qo'shko'pir	2857,3	94,6
Urganch	2965,3	97,3
Hazorasp	2322,9	97,3
Tuproqqal'a	735,4	99,3
Xonqa	2844,3	96,3
Xiva	2199,9	98,7
Shovot	2700,9	98,3
Yangiariq	2107,5	91,5
Yangibozor	2283,7	96,3


hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, % da

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12 706,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Urganch sh.	3291,9	87,8
Xiva sh.	606,5	95,9
Bog'ot	792,3	98,2
Gurlan	1035,9	99,5
Qo'shko'pir	969,4	99,4
Urganch	1543,8	98,1
Hazorasp	1350,7	96,2
Tuproqqal'a	323,3	99,9
Xonqa	840,7	97,2
Xiva	426,7	93,9
Shovot	853,2	96,8
Yangiariq	579,6	99,6
Yangibozor	365,7	96,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**3 291,9** mlrd. so'm), Urganch (**1 543,8** mlrd. so'm), Hazorasp (**1 350,7** mlrd. so'm), Gurlan (**1 035,9** mlrd. so'm), Shovot (**853,2** mlrd. so'm), Xonqa (**840,7** mlrd. so'm) va Bog'ot (**792,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 725,1** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,2 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **107,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**1 801,1** mlrd. so'm), Urganch (**700,5** mlrd. so'm), Xonqa (**646,1** mlrd. so'm), Hazorasp (**563,7** mlrd. so'm), Bog'ot (**548,9** mlrd. so'm), Gurlan (**530,8** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir (**507,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Urganch sh.	5643,7	18,9
Xiva sh.	12556,0	88,1
Bog'ot	17118,4	73,2
Gurlan	18052,1	76,0
Qo'shko'pir	8419,8	100,0
Urganch	18959,9	74,1
Hazorasp	25627,9	91,9
Tuproqqal'a	10242,3	64,4
Xonqa	25993,4	74,6
Xiva	13977,5	97,6
Shovot	3130,8	10,9
Yangiariq	11052,8	53,8
Yangibozor	20445,6	74,2

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **192 863,1** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **65,0** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qo'shko'pir tumanida – **100,0** %, Xiva tumanida – **97,6** %, Hazorasp – **91,9** %, Xiva sh. – **88,1** %, Gurlan tumanida – **76,0** %, Xonqa tumanida – **74,6** % Yangibozor tumanida – **74,2** % va Urganch tumanida – **74,1** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **10,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **230 241,4** ming AQSH dollarini yoki jami importning **40,0** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **98,4** %, Yangibozor tumanida – **83,3** %, Urganch sh.– **80,1** %, Urganch tumanida – **67,0** %, Xonqa tumanida – **57,6** %, Gurlan tumanida – **53,7** %, hamda Xiva tumanida – **43,7** % ni tashkil etdi.

Hazorasp	98,4
Yangibozor	83,3
Urganch sh.	80,1
Urganch	67,0
Xonqa	57,6
Gurlan	53,7
Xiva	43,7
Bog'ot	26,5
Xiva sh.	25,8
Yangiariq.	20,8
Shovot	16,5
Qo'shko'pir	11,9
Tuproqqal'a	3,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



95,2 %

Yuk
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



81,3 %

Yuk
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **81,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil qildi.



94,6 %

Yo'lovchi
tashishda

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.




96,2 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2023- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 110 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 391 (35,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 683 ta (61,5 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 36 ta (3,3 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 40,1 % (445 ta), xizmatlar sohasida – 29,0 % (322 ta), sanoatda – 15,1 % (168 ta), qurilishda – 8,2 % (91 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,6 % (84 ta)ni tashkil etdi.

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

248	Urganch sh.	22,3
77	Xiva sh.	6,9
69	Bog'ot	6,2
67	Gurlan	6,0
75	Qo'shko'pir	6,8
141	Urganch	12,7
72	Hazorasp	6,5
31	Tuproqqal'a	2,8
96	Xonqa	8,6
58	Xiva	5,2
67	Shovot	6,0
61	Yangiariq	5,5
48	Yangibozor	4,3


Birlik

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**248** ta), Urganch (**141** ta), Xonqa tumanlari (**96** ta) va Xiva shahri (**77** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning IV choragida **113** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **391** taga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **278** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **387** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **683** ta yoki **296** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **5** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **36** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **31** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **249** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **347** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **98** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **197** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning III choragida **586** ta yoki **389** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning IV choragida **2** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **38** tani tashkil etib **36** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **22,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **35,2** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **12,8** % birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **76,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **61,5** % yoki **15,1** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **1,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **3,3** % ga yetgan yoki **2,3** % ga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **55,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **35,7** % ga yetgan yoki 2018- yilning IV choragida nisbatan **19,9** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **44,0** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-martida **60,3** % yoki **16,3** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilning IV choragida **0,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **4,0** % yoki **3,6** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **35,7** % ni, qurilishda – **35,2** % ni, xizmatlar sohasida – **35,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **64,3** % ni, sanoatda – **63,7** % ni, qurilishda – **61,5** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **4,0** % ni, savdoda – **3,6** % ni, qurilishda – **3,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – 49,4 % ni, savdoda – 45,2 % ni, va xizmatlar sohasida – 45,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 56,0 % ni, sanoatda – 56,0 % ni, xizmatlar sohasida – 53,1 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2,3 % ni, xizmatlar sohasida – 1,9 %, savdoda – 1,8 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	35,7	58,9	5,4
Band bo'lganlar soni	21,4	75,8	2,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,2	68,3	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	25,2	69,8	5,0
Raqobat muhiti	35,3	63,2	1,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,5	60,2	2,3
Band bo'lganlar soni	23,4	75,0	1,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,6	68,8	1,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,1	68,4	5,5
Raqobat muhiti	35,9	62,6	1,5


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli